

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUXANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Rektor \_\_\_\_\_ O.Sh. Bazarov

2022 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_

**YARIMO'TKAZGICHLI QUYOSH ELEMENTLARI FIZIKASI VA  
TEXNOLOGIYASI**

**FAN DASTURI**

**Bilim sohalari:** 700.000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari;

**Ta'lif sohalari:** 710.000 – Muhandislik ishi;

**Ta'lif yo'nalishi  
(mutaxassisligi)** 70711001– Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha)

**Qarshi-2022**

<b>Fan/modul kodi</b> YO'QEF1306	<b>O'quv yili</b> 2022-2023	<b>Semestr</b> 3	<b>ECTS – Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Tanlov		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	Yarimo'tkazgichli quyosh elementlari fizikasi va texnologiyasi	90	90	180
<b>2.</b>	<b>Fanning mazmuni</b> <b>2.1.Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari</b> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda kelajakda mustaqil ilmiy tadqiqot va amaliy ishlab chiqarish jarayonlarida Yarimo'tkazgich materiallarni fizik-kimyoviy xossalari bo'yicha ajrata bilish, ularga turli xil ishlovlar bera olish, ish vazifasi talablariga mos keluvchi Yarimo'tkazgich asboblarning xossalari va parametrlarini nazariy hisoblay bilish va ularni Yarata olish uquv va malakalarini hosil qilishdan iboratdir.</p> <p>Fanning vazifasi – uni o'rghanuvchilarga:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yarimo'tkazgichlarning umumiy mexanik, kristallografik, fizik, kimyoviy va b. xossalari;</li> <li>• Yarimo'tkazgich moddalar xossalaringin ularni o'stirish jarayonlariga bog'liqligi haqida;</li> <li>• Yarimo'tkazgich kristallarni o'stirish jarayonlarining fizik-kimyoviy sharoitlarini va o'ziga xosligini ajrata olish;</li> <li>• Yarimo'tkazgich materiallarni legirlashning fizik mexanizmlari va matematik apparati to'g'risida;</li> <li>• kirishmalarning yarimo'tkazgichlardagi diffuziyaviy ko'rsatkichlari, eruvchanligi, segregatsiya koeffitsienti, elektrik va optik xossalari bo'yicha;</li> <li>• omik kontaktlarga bo'lgan talablar haqida; yarimo'tkazgich asboblar olish usullarini, fotolitografiya, asboblar sirtini himoyalashning fizik-kimyoviy usullari va mexanizmlari bo'yicha;</li> <li>• olingan bilimlarni amaliyatga qo'llash;</li> <li>• olingan o'lhash natijalarini asosida qanday texnologiyalardan foydalanilganini aniqlash;</li> <li>• mavjud texnologiyalarning qo'llanish chegaralari haqida bilimlarga ega bo'lishlari lozim;</li> <li>• umumiy talab darajasidagi texnologik masalalarni echish va tahlil qilish;</li> <li>• fizikaviy masala va tajribalar natijalarini har xil o'lchov sistemalarida hisoblashda matematik hisoblash usullarini qo'llay bilish malakasiga ega bo'lishlari lozim</li> <li>• talabalar uchun oddiy texnologik laboratoriya ishlarini yarata bilish;</li> <li>• zamaonaviy quyosh elementlari (yupqa qatlamli, organik, polimer, perovskit asosidagi quyosh elementlari) xususiyatlarini o'rghanish;</li> <li>• amaliy hisob ishlarini bajarish va natijalarni tahlil qilish;</li> </ul> <p>nazariy xatoliklarini, hisoblash va natija sifatini xulosalash; tajribalarda ishlatiladigan o'lchov asboblaridan to'g'ri va aniq foydalanish malakasi va ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.</p>			

## **2.2. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**Fan tarkibi mavzulari:**

**1-modul.** Yarimo’tkazgichlarda kechadigan jaraènlarni o‘rganish. Elektr o‘tkazuvchanligining elementar nazariyasi. **1-mavzu.** Kirish.O‘tkazgichlar (metallar), dielektriklar va yarimo’tkazgichlarning xossalari taqqoslash.Metallar va qotishmalar tuzilishining fizik asoslari. Dielektriklar va ularning xossalari. Yarim o‘tkazgichlar va ularning xossalari.Yarimo’tkazgichlarning kristall tuzilishi.Toza yarimo’tkazgich materiallar olish.Yarimo’tkazgichlarning turlari

**2-mavzu.** **Qattiq jiislarda energetik zonalar nazariyasi asoslari.**O‘tkazuvchanlik zonasi, valent zona va ta’qiqlangan zona.Qattiq jiislarda valent zona, o‘tkazuvchanlik zonasi haqida ma’lumotlar.Ta’qiqlangan zona

**3-mavzu.** Yarimo’tkazgichlarda erkin zaryad tashuvchilar.yarimo’tkazgichlarda nuqsonlar va ularning turlari.Erkin zaryad tashuvchilarning asosiy xossalari.Erkin zaryad tashuvchilarning yashash vaqtি. Erkin zaryad tashuvchilarning erkin yugurish yo’li.Erkin zaryad tashuvchilarning harakatchanligi.Nuqsonlar.Nuqsonlarning paydo bo’lish sabablari va ularning turlari.

**4-mavzu.** Yarimo’tkazgichlarda kirishmalar.Kirishmalarning hosil bo’lishi.Kremniyga kirishma atomlarini kiritish usullari.Kirishmalarning energiya sathlari.Kirishmali yarimo’tkazgichlar.

**5-mavzu.** Yarimo’tkazgichlarda kinetik hodisalar.Yarimo’tkazgichlarda elektr o‘tkazuvchanlik mexanizmi.Yarimo’tkazgich materialga tashqi ta’sirlar.Yarimo’tkazgichlarda Xoll effekti.Tomson effekti.

**6-mavzu.** **p-n (elektron-kovak) o’tish.**Elektron-kovak (p–n) o’tishning hosil bo’lishi.p-n o’tishda potentsial va maydon taqsimioti.p-n o’tishning VAX. To’g’rilagich diodlar.

**7-mavzu.** Yarimo’tkazgichli to‘g‘rilovchi diod nazariyasi.**Elektron-teshikli o’tish-diod.** Yarimo’tkazgichli asboblar. Yarim o‘tkazgichli diodlar.Diodlarning turlari.Tranzistorlar.Tiristorlar.

**2-modul.** **Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirishning fizik xossalari.**

**8-mavzu.** **Quyosh nurlanishining xususiyatlari.**Quyoshning nurlanishi.Er albedosi.Quyosh nurlanishining tarkibi.

**9-mavzu.** **Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish samaradorligi.** Yarim o‘tkazgichli kristallarning optik va elektrik xususiyatlari.Yarim o‘tkazgichli quyosh elementlarida optik nurlanishni elektr energiyasiga aylantirish.

**10-mavzu.** **Quyosh elementlari konstruksiyalari.**Yoritilmagan r-n o’tishdagi potensial to‘siq.Elektron-teshik (kovak) juftligining taqsimlanishi.Optik nurlanishni yarimo’tkazgich materialiga tushishi.

**11-mavzu.** **Quyosh elementlari volt-amper xarakteristikasi.** Quyosh elementlari volt-amper xarakteristikasining yorug‘lik va qorong‘ulikda tahlil qilish. Quyosh elementlarini tashkil qiluvchi tuzilmalarning xususiyatlarini o‘rganish.

**12-mavzu.** **Quyosh elementlarni tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan optimal parametrlari yarim o‘tkazgichli materiallar.** Quyosh elementining foydali ish koefitsienti tushunchasi va uni o‘lchash usullari.Quyosh nurlanishi imitatorlari.Etalon quyosh elementlari va uni graduirovka qilish .

**13-mavzu.** **Yuqori samarali quyosh elementlari.**Yuqori samarali kremniy asosidagi quyosh elementlarining yangi konstruksiyalari. Yupqa qatlamlı kremniy asosidagi quyosh elementlari va ularni tayyorlashda avtomatizatsiya qilish usullari.

**3-modul.** **Quyosh elementlarini tayyorlash texnologiyasi va ularni o‘rganish usullari.**

**14-mavzu.** **Quyosh elementlari tayyorlashda ishlataladigan asosiy materiallar.**Quyosh elementlari tayyorlashda ishlataladigan materiallarning xususiyatlari.YArim o‘tkazgichli

materiallar o'stirish usullari.Yarimo'tkazgichli materiallarni tigel yordamida o'stirish usullari. Tigelsiz o'stirish usullari.

**15-mavzu. Kristallar o'stirish jarayonida kirishmalarning taqsimlanishi va ularni o'rganish.**Eritmalardan o'stirish usullari.YArim o'tkazgichli materiallarga mexanik va ximik ishlov berish texnologiyasi.

**16-mavzu.Quyosh elementlari tayyorlashning diffuziya yordamida strukturalar olish usullari.**YArim o'tkazgichli materiallarda diffuziya qonunlarining ishlatalish imkoniyatlari.Ikki stadiyali diffuziya qilish usuli. Diffuzion qatlamlar xususiyatlarini o'rganish.Diffuzion texnologiya asosida quyosh elementlarini tayyorlash imkoniyatlari.

**17-mavzu.Geteroo'tishlar va ularning xossalarni o'rganish.**Geteroo'tish tushunchasi.Geteroo'tishlarning energetik diagrammasi.Yarim o'tkazgichli materiallar asosidagi geterojuftliklar.

**4-modul. Yarimo'tkazgichlarda kontakt hodisalar. 18-mavzu.Metall-yarimo'tkazgich kontaktning xosil bo'lishi. Kontakt potensiali farqi.**Richardson-Deshman qonuni.Metall-yarimo'tkazgich kontakt.Berkituvchi kontakt.Berkitmovchi kontaktlar.Berkituvchi kontaktning Volt-Amper xarakteristikasi.Berkitmovchi kontaktlarning o'rni.

**19-mavzu. Omik kontaktlar.Quyosh elementlari tuzilmalariga omik kontaktlar olish texnologiyasi.**Omk kontakt tushunchasi. Omik kontaktlar olish usullari.Omk kontaktlarning xususiyatlarini o'rganish.Quyosh elementlari kontakt olish jarayoning marshruti.

**20-mavzu. Yuzadan akslanishni kamaytiruvchi qatlamlar olish texnologiyasi.**Akslanishni kamaytiruvchi materiallarning xususiyatlari.Akslanishni kamaytiruvchi qatlamlar olish usullari. Piroliz usuli bilan qatlamlar olish.Akslanishni kamaytiruvchi qatlamlar olishning termik usuli.

**21-mavzu.Quyosh elementlari tayyorlash texnologiyasida fotolitografiya usulining qo'llanilishi.**Fotolitografiya usuli va uning mohiyat.Fotolitografiya usulida qo'llaniladigan materiallar.Fotoshablon yordamida rasmga tushirish jarayoni.Metall va dielektrik qatlamlarida shakl hosil kilish.

**22-mavzu.Fotoelektrik batareyalar va fotoelektrik qurilmalar tayyorlash texnologiyasi.**Fotoelektrik batareya tushunchasi.Quyosh elementlarini saralash usullari.Quyosh elementlarini germetizatsiya qilish texnologiyasi.Fotoelektrik qurilmalar va ularni tayyorlash texnologiyasi.Quyosh batareyalari va fotoelektrik qurilmalar parametrlerini hisoblash namunalari.

### **2.3.Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada, ishlab chiqarish korxonalarida mavjud qurilmalardan foydalangan holda yoki ilmiy tadqiqot muassasalaridagi jihozlardan foydalangan holda o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik mahoratga ega, ilmiy darajasi mavjud, shu soha olimlari tomonidan o'tilishi lozim.

#### **Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy ro'yxati**

- 1.Yarimo'tkazgichlardi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi
- 2.Yarimo'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi
- 3.Yarimo'tkazgichlarda tok tashuvchilar drejf tezligi va harakatchanligi
- 4.Yarimo'tkazgichlarda Xoll effekti. Yarimo'tkazgichlarda Xoll effekti
- 5.Fotoeffektga doir masalalar
- 6.Yarimo'tkazgichli fotoelementlarning VAX
- 7.Yarimo'tkazgichli quyosh elementining F.I.K. ni aniqlashga doir masalalar
- 8.Yarimo'tkazgich materiallar xossalarni boshqarishning diffuziyaviy usuliga oid masalalar echish.

### **2.4.Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

O'quv rejasiga laboratoriya ishlari kiritilmagan.

## **2.5.Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

O'quv rejasiga binoan ushbu fandan Kurs ishi (loyihasi) rejalahtirilmagan.

## **2.6.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlari**

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistr talabalar tomonidan referatlар tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

### **Tavsiya etiladigan mustaqil talim mavzulari**

1. Zamonaviy Yarimo'tkazgich materiallar va asboblar
2. Monokristall va amorf kremniy o'stirish
3. Kristallarni o'stirish yo'nalishlari. Miller indekslari
4. Amorf kremniyning qo'llanish sohalari.
5. Dislokatsiyalar. Yarimo'tkazgich materiallarda mavjud dislokatsiyalarni aniqlash usullari
6. Kremniyga mexanik va kimyoviy ishlov berish.
7. Kremniydagи termik nuqsonlar.
8. Yuqori vakuum olish zamonaviy qurilmalari.
9. Kremniyda davriy sistema elementlarining diffuziyasi va eruvchanligi.
10. Kremniyda  $p-n$  o'tish olish va o'tish chuqurligini aniqlash. Nazariy va amaliy hisoblashlar.
11.  $n$ - va  $p$ -kremniy sirtiga omik kontakt hosil qilish va uni tekshirish.
12. Yarimo'tkazgich materialarning solishtirma qarshiligini to'rt zondli usul bilan o'lchash.
13. Yarimo'tkazgich materialarning solishtirma qarshiligini Van-Der-Pau usuli bilan o'lchash.
14. Yarimo'tkazgich materialarning solishtirma qarshiligini bir zondli usul bilan o'lchash.
15. Yarimo'tkazgichlarda fotoo'tkazuvchanlikni o'rganish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda ushbu fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

**1) Mavzular bo'yicha konspekt** (referat, taqdimot) **tayyorlash**. Nazariy materialni puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'quv materialiga diqqatni ko'proq jalb etishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ishlarini osonlash-tiradi va vaqtini tejaydi;

**2) O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash**. Olgan bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tavsiYa etilgan elektron manbalar, innovatsion dars loyihasi namunalari, o'z-o'zini nazorat uchun test topshiriqlari va boshqalar;

**3) Fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash**. Mustaqil o'rganish uchun berilgan mavzular bo'yicha talabalar tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv-ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanish rag'batlantiriladi;

**4) Internet tarmog'idan foydalanish**. Fan mavzularini o'zlashtirish, amaliy mashg'ulot va mustaqil ishlarni yozishda mavzu bo'yicha internet manbalarini topish, ular bilan ishslash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan rag'batlanti-riladi;

**5) Mavzuga oid masalalar, keys-stadilar va o'quv loyihalarini ishlab chiqish, shuning bilan birga ishtirop etish;**

**6) Amaliyot turlariga asosan material yig'ish, amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish, hisobotlar tayyorlash;**

**7) Ilmiy seminar va anjumanlarga tezis va maqolalar tayyorlash va ishtirop etish;**

**8) Mavjud amaliy mashg'ulot ishlarini takomillashtirish, masofaviy (distansion) ta'lim asosida mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalar tayyorlash va h.k.**

Yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy

	<p>maqola (tezis) va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Vazifa-larini tekshirish va baholash amaliy mashg’ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konseptlarni va mavzuni o‘zlashtirishni ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.</p> <p>Mustaqil ishni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyati masalalar to‘plami ishlab chiqiladi. Ma’ruza mavzulari bo‘yicha amaliy topshiriq, keys-stadilar echish uslubi va mustaqil ishslash uchun vazifalar belgilanadi.</p>
3.	<p><b>Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiylar).</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: Yarimo‘tkazgich materiallarni ishlatalishning fizik-kimyoviy tamoyillarini tushunishi, Yarimo‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasining asosiy tushunchalari: zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi, materialning elektrofizik xossalari, akseptor va donor kirishmalar, solishtirma qarshilik, harakatchanlik kabilar bilan talaba bilan yaxshi tanishishi lozim.</p> <p>Talaba yarimo‘tkazgich materiallarni o‘stirish va legirlash usullari, yarimo‘tkazgich material va namunalarga mexanik, kimyoviy va termik ishlovlari berish asoslari, yarimo‘tkazgich asboblar: <i>p-n</i> o‘tishlar va geteroo‘tishlar olish texnologiyalari, epitaksiya, ionlar implantatsiyasi, fotolitografiya va b., metall va dielektrik plenkalar olish texnologiyasi, yuzadan akslantirishni kamaytiruvchi qatlamlarni olish texnologiya va metodikalarini, kristall va yupqa qatlamlari quyosh elementlarini olish texnologiya va usullarini, fizik asoslarini, shuningdek yangi turdagи QE elektrofizik xossalarni to‘liq o‘zlashtirish <b>malakalariga ega bo‘lishi kerak.</b></p>
4.	<p><b>Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishslash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalalar.</li> </ul>
5.	<p><b>Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirib, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayon-lar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, Yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>Adabiyotlar</b></p> <p><b>6.1. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Тешабоев А., Зайнобиддинов С., Мусаев Э.А. Яримўтказгичлар ва яримўтказгичли асбоблар технологияси. Ўкув қўлланма. Т.:Ўзбекистон,2005.- 224 бет.</li> <li>2. Teshaboyev A., Zaynobidinov S., Musayev E.A. Yarimo‘tkazgichlar va yarimo‘kazgichli asboblar texnologiyasi. Ўкув қўлланма. Т.: Талқин, 2006.- 336 бет.</li> <li>3. Zaynobiddinov S., Yo’lchiyev Sh., Nazirov D.E., Nosirov M. Yarimo‘tkazgichlarda atomlar diffuziyasi. O’quv qo’llanma. T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2012. – 176 bet.</li> <li>4. Юнусов М.С., Власов С.И., Назиров Д.Э., Толипов Д.О. Электрон асбоблар. Ўкув қўлланма. Т.: ЎзМУ, 2003. – 192 бет.</li> <li>5. Курносов А.И., Юдин В.В. Технология производства полупроводниковых приборов и интегральных микросхем. М.: «Высшая школа», 1979. – 368 стр.</li> <li>6. Зайнобиддинов С., Тешабоев А. Яримўтказгичлар физикаси. Ўкув қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 1999.</li> <li>7. Акрамов Х., Зайнобиддинов С., Тешабаев А. Яримўтказгичларда фотоэлектрик ходисалар. Ўкув қўлланма. Т.: Ўзбекистон, 1994.</li> <li>8. Тешабоев А., Зайнобиддинов С., Каримов И., Рахимов Р., Алиев Р. Яримўтказгичли асбоблар физикаси. Ўкув қўлланма. А.: Ҳаёт, 2002.</li> </ol>

9.Тешабоев А., Зайнобидинов С., Эрматов Ш. Қаттиқ жисм физикаси. Ўқув қўлланма. Т.: Молия, 2001.

10.Орешкин П.Т. Физика полупроводников и диэлектриков. Учебное пособие. М.: Высшая школа, 1977.

11.Шалимова К.В.Физика полупроводников.Учебное пособие.М.:Энергия, 1976.

12.Фистуль В.И. Введение в физику полупроводников. Ўқув қўлланма. М.: Высшая школа, 1984.

13.Мамадолимов А.Т.Фотоэлектрические явления в полупроводниках. Учебное пособие. Т.: НУУз, 2003.

14.Мамадолимов А.Т.,Турсунов М.Н.Яримўтказгичли қуёш элементлари физикаси ва технологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент:.-2002 й.946.

15.Поплавко Ф.П. Физика диэлектриков. Ўқув қўлланма. К.: КГУ, 1980.

16.Qodirov I.N,YuldashevI.A.,Davlonov X.A.Muqobil energiya manbalari ta'minoti. O'quv qo'llanma. Qarshi, "Intellekt" nashriyoti, T.:2022.-152 b.

17.G‘.N. Uzoqov, R.A.Zohidov, I.N. Qodirov, X.S. Isaxodjaev,T.A.Fayziev, Sh.K.Yaxshiboev; Termodinamika va issiqlik texnikasi. Darslik. Qarshi, "Intellekt" nashriyoti, T.:2021. – 408 b.

### **6.2.Қўшимча адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М. Таңқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – хар бир раҳбар фаолиятининг қундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил яқунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишлиган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.

2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - Т.: Ўзбекистон, 2017. - 46 б.

3. Ўзбекистонда қайта тикланадиган энергетикани ривожлантириш истиқболлари. БМТ Тараққиёт дастури. –Т.:2007 йил

4. Готра З.Ю. Технология микроэлектронных устройств: Справочник. М.: Радио и связь, 1991. – 536 стр.

5. Черняев В.Н. Физико-химические процессы в технологии РЭА. Учебник. М.: Высшая школа, 1987. – 375 стр.

6. Nazirov E.N., Nazirov D.E., Teshaboev A.T. Yarimo'tkazgichlar fizikasi lug'ati. Т.: «Universitet», 2008. – 324 бет.

7. Хабибуллаев П.К., Назиров Э.Н., Отажонов Ш.О., Назиров Д.Э. Физика изохли луғати. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.– 304 бет.

### **6.3.Axborot manbaalari:**

8. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)– О‘zbekiston Respublikasining hukumat portalı.

9. [www.catback.ru](http://www.catback.ru)– xalqaro ilmiy maqola va materiallar sayti.

10. [www.google.ru](http://www.google.ru) – xalqaro o‘quv materiallarini qidiruv sayti.

11. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – milliy o‘quv materiallarini qidiruv sayti.

7. Fan dasturi ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv rejasiga tanlov fanlar sifatida kiritilgan. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Ilmiy kengashining 2022 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_ sonli qarori bilan tasdiqlangan.  
Fan yuzasidan bajarilgan fan dasturi «Muqobil energiya manbalari» kafedrasining 2022\_\_ yil \_\_\_\_ dagi №\_\_\_\_ -sonli, “Energetika” fakulteti uslubiy komissiyasining 2022\_\_ yil \_\_\_\_ dagi №\_\_\_\_ - sonli hamda institut Uslubiy Kengashi 2022\_\_ yil \_\_\_\_ dagi №\_\_\_\_ - sonli yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilgan.

8. **Fan/modul uchun ma’sullar:**  
**I.N. Qodirov** - QarMII Energetika fakulteti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi professori, f.m.- f.n.  
**X.A.Davlonov** - QarMII Energetika fakulteti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi mudiri, dotsent, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

<b>9.</b>	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>G‘.N. Uzoqov</b> - QarMII Energetika fakulteti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasini professori, t.f.d.,</p> <p><b>Af.B.Vardiyashvili</b>-- QarDU « Muqobil va qayta tiklanuvchi energya manbalari» kafedrasini mudiri, dotsent,t.f.n.</p>
-----------	---